

RIVOJLANIB BORAYOTGAN JAMIYATIMIZDA SUN'IY INTELLEKTNING
XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDAGI FOYDALARI VA ZARARLARI

Elmurodova Sadoqat Shermuhammad qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi
Sadoqatelmurodova708@gmail.com

Shamsiddinova Sevinch Nuriddin qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi
Sshamsiddinova810@gmail.com

Arashova Sakina Otajon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi
Sakinaarashova07@gmail.com

Ilmiy rahbar: Diyorjon Turg'unpo'latov Ro'zmamat o'g'li

ANNOTATSIYA

So'nggi yillarda sun'iy intellekt (Artificial Intelligence — AI) texnologiyalari inson hayotining deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bordi. U tibbiyot, ta'lim, iqtisodiyot, san'at, axborot texnologiyalari va hatto kundalik muloqot jarayonlarida faol qo'llanilmoqda. Ayniqsa, tasvirlar bilan ishlovchi AI tizimlari — yuzni aniqlash, fotosuratlarini qayta ishlash, texnologiyalari, avatar va virtual shaxslar yaratish kabi yo'nalishlar tez rivojlanmoqda. Bundan tashqari, ba'zi odamlar hatto bexabar qolmoqda o'zlarining shaxsiy fotosuratlaridan foydalanilgan holatda ularning nomidan ish qilishayotgani haqida, xususan, ularning tashqi ko'rinishidan ijtimoiy tarmoqlarda keng va ochiqchasiga foydalanishmoqda. Shu kabi holatlar koproq mashhur insonlarda, aktyorlarda yoki bolmasa o'zga davlatlarning boshqaruvchilarining sur'atlaridan foydalangan holda vedioroliklar tayyorlashmoqda.

KALIT SO'ZLAR: *Sun'iy intellekt, shaxsiy ma'lumotlar, tasvirlardan ruxsatsiz foydalanish, shaxsiy rozilik, shaxsiy hayot daxlsizligi, yuzni aniqlash texnologiyalari, deepfake, raqamli etika, inson huquqlari, ma'lumotlarni himoyalash*

ABSTRACT

This article examines the growing issue of using individuals' images in artificial intelligence systems without their explicit consent in the context of the rapid development of AI technologies. The study analyzes how personal photographs collected from open digital platforms are utilized to train AI models and discusses the implications of this practice for privacy, human rights, and ethical standards. Particular attention is given to the risks associated with deepfake technologies, existing legal gaps, and the potential social consequences of unauthorized image usage. The article also proposes possible solutions, including the development of stricter legal regulations, the enforcement of informed consent

mechanisms, and the promotion of digital ethics to ensure that technological progress does not undermine human dignity.

KEYWORDS: *Artificial Intelligence, personal data, image consent, privacy violation, facial recognition, deepfake technology, digital ethics, human rights, data protection, AI regulation*

Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar kuchaygan bir paytda, odamlar o'zlarining bilimlaridan ko'ra sun'iy intellektning yordamini afzal ko'rishmoqda, Biroq ushbu taraqqiyot bilan birga jiddiy muammolar ham yuzaga chiqmoqda. Shulardan eng dolzarblaridan biri — insonlarning shaxsiy roziligisiz ularning fotosuratlarini va tasvirlaridan foydalanish masalasidir. Bu holat shaxsiy hayot daxlsizligi, axloqiy me'yorlar va inson huquqlari bilan bevosita bog'liq murakkab muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Tabiiyki odamlar o'zlarining shaxsiy ma'lumotlarini butun dunyoga yoyishni yoqtirishmaydi. Shunday ekan, boshqa shaxslar ham ularning shaxsiy hayoti daxlsiz ekanligini unutishmasa yaxshi bo'lar edi. Ular yaratgan vedioroliklar kulguli, kayfiyatni ko'taruvchi yoki odamlar uchun shunchaki vaqtni behudaga sarflashda o'ylab topilgan mashg'ulot bo'lishi mumkin. Ammo, bu qonunchilikka qarshi chiqish va o'sha insonga nisbatan hurmatsizlikdir.

Tasvirlar bilan ishlovchi AI tizimlari uchun esa millionlab, ba'zan milliardlab fotosuratlar talab etiladi. Ushbu rasmlar orqali algoritmlar inson yuzi tuzilishi, mimika, yosh, jins, emotsiya va boshqa vizual belgilarni farqlashni o'rganadi. Ammo muammo shundaki, bu rasmlarning katta qismi: ijtimoiy tarmoqlardan, ochiq internet saytlaridan, video platformalardan, shaxsiy akkauntlar va bloglardan, odamlarning bevosita roziligisiz yig'ib olinadi. Bu ham yetmagandek keng ommaga ochiqchasiga tarqatiladi. Xususan, Telegram, Instagram, Facebook, Tik tok, Wats Up, Hello talk yoki boshqa shu kabi ommaviy axborotlardan foydalaniladigan ilovalarda ko'rishimiz mumkin. Rivojlanayotgan davlatlarda esa bu muammo yanada keskin.

Texnologiya taraqqiyoti inson qadr-qimmatidan ustun bo'lmasligi kerak. Ammo bugungi kunda ko'plab AI loyihalarida: inson faqat "ma'lumot manbai" sifatida ko'rilmogda, shaxs emas, obyekt sifatida talqin qilinmogda, uning roziligi ikkinchi darajaga tushib qolmogda. Bu esa axloqiy jihatdan jiddiy savollarni tug'diradi. Xo'sh, texnologik rivojlanish uchun inson huquqlarini qurbon qilish qanchalik to'g'ri?

Agar bu muammo nazoratsiz qolsa, kelajakda: odamlar raqamli muhitga ishonmay qo'yishadi, internetda shaxsiy erkinlik yo'qolishi, doimiy kuzatuv hissi kuchayishi, shaxsiylik tushunchasi butunlay o'zgarib ketishi mumkin. Bu esa jamiyatning psixologik holatiga, ijtimoiy munosabatlarga va erkin fikrlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu muammoni kamaytirish uchun bir nechta chora tadbirlarni ko'rishimiz zarur. AI sohasida qat'iy qonunlar ishlab chiqish, shaxsiy rozilikni majburiy talab sifatida belgilash, AI kompaniyalarining shaffofligini oshirish, jamiyatda raqamli savodxonlikni kuchaytirish.

Sun'iy intellekt — insoniyat uchun ulkan imkoniyatlar yaratadigan texnologiya edi aslida, ammo, bugungi kunda sun'iy intellekt shaxsiy axborotlarni ham ommaga tarqatishda yordam beruvchi jinoyatchiga aylanib qolmoqda.

Texnologiya inson uchun xizmat qilishi kerak, inson texnologiya uchun emas. Chunki, raqamli texnologiyani inson qo'li bilan yaratgan edi, texnologiya insonni emas, shunday ekan, har bir inson o'ziga berilgan huquqdan to'g'ri va samarali foydalanishi muhim.

Haqiqatan, sun'iy intellektning foydali jihatlari ko'p:

- Davlat xizmatlarini tezlashtiradi;
- Byurokratik to'siqlarni kamaytiradi;
- Inson omiliga bog'liq xatolarni qisqartiradi;
- Qaror qabul qilish jarayonini optimallashtiradi;
- Chet tillarini o'rganishda qulay o'qituvchi;
- Xati va kamchiliklarni tekshiruvchi, nazoratchi;

Darhaqiqat, AI insonlarning hayotiga kirib kelishi bilanoq juda ko'p o'zgarishlarga sabab bo'ldi, ammo, "Tanganing ikki tarafi bo'lganidek" yaxshi xususiyatlari qancha ko'p bo'lsa, keltiradigan zarari ham shundan kam emas.

Xususan:

- SI qarorlarining qanday asosda qabul qilinayotgani tushunarsiz bo'lishi mumkin;
- Shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi xavf ostida qoladi;
- Inson nazoratisiz ishlaydigan tizimlar adolatsiz yoki xato qarorlar chiqarishi ehtimoli bor.

Bundan tashqari, AI tizimi yanada takommilashishi insonlar uchun yaxshi, ammo, ba'zi kasb turlari uchun muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, O'qituvchi, Shifokor, Gid, IT va texnologiya, Psixologiya va raqamli texnologiyalarning o'rnida bo'la oladi.

Har ikkala tarafni bir muvozanatda saqlash mushkul ish:

1. SI faoliyati qonuniy asosda tartibga solinishi;
2. Javobgarlik aniq belgilanishi;
3. Algoritmilar shaffof bo'lishi;
4. Fuqarolarning roziligi va huquqlari ustuvor bo'lishi shart.

"Javobgarlik masalasida yagona yondashuv yo'q. Ba'zi olimlar ishlab chiqaruvchi SI egasini javobgar deb hisoblasa, foydalanuvchi javobgarligini ham inobatga olish lozim" -deya takidlab o'tgan – Farhodjon Abduhakimov.

XULOSA: Avvalo, insonlar sun'iy intellektdan qanday foydalanish qoidalarini bilishi lozim, yo'qsa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shunday ekan, sun'iy intellektdan foydalanish qoidalari ham kiritilsa zarar qilmaydi. Hozirgi kunning dolzarb muammolaridan birining oldini olish mumkin bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yevropa Ittifoqi. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish – (online manba)
2. UNESCO. Sun'iy intellekt etikasi – (online manba)
3. Stenford Universiteti. Sun'iy intellekt va inson huquqlari - (online manba)
4. Jahon Iqtisodiy Forumi. AI, maxfiylik va ma'lumotlarni himoya qilish - (online manba)
5. MIT Technology Review. Sun'iy intellekt tizimlarida shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish xavflari - (online manba)
6. OpenAI. AI xavfsizligi, etikasi va mas'uliyatli foydalanish - (online manba)
7. IBM. Ma'lumotlarni himoya qilish va sun'iy intellekt - (online manba)
8. Privacy International. Yuzni aniqlash texnologiyalari va maxfiylik xavflari - (online manba)
9. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun. - (online manba)
10. Brookings Institution. Deepfake texnologiyasi va uning ijtimoiy ta'siri - (online manba)
11. Ijtimoiy-huquqiy ilmiy jurnal "Huquq va burch"2025 - (64-bet)